



“O‘ZTRANSGAZ” AKSIYADORLIK JAMIYATI
BUYRUG‘I

20~~22~~“ 4 ” *aprel*

40 - sonli

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida” gi
Qonuni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

“Davlat xaridlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O‘RQ-684-son Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 iyuldagi “Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5171-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin:

- “Davlat xaridlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 aprel O‘RQ-684-son Qonuni (keyingi o‘rinlarda - Qonun deb yuritiladi) 2021 yilning 23 aprelda rasman e‘lon qilinganligi va 24 iyuldan kuchga kirganligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 iyuldagi “Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-5171-sonli qarori;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 iyuldagi PQ-5171-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, Xaridlar va kooperatsion aloqalar departamenti (Kirgizov), Korporativ munosabatlar va aktivlar bo‘limi (Zakriyayev), Axborot xizmati (Ravshanova), barcha tarkibiy bo‘linmalar va tashkilotlar quyidagilarni:

- xaridlarni amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘lonlar va davlat xaridlari natijalari to‘g‘risidagi axborotni maxsus axborot portali hamda ommaviy axborot vositalarida joylashtirishni;

- tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravari miqdoridan oshgan hollarda, xaridga doir texnik topshiriqlar va tender hujjatlarini kompleks ekspertizadan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasiga kiritishni;

- davlat xaridlarining yillik va choraklik reja-jadvallarini, shuningdek, import qilish rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxatlarini xaridlarning

maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan kuzatuv kengashi majlisida ko'rib chiqilishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq belgilangan davlat xaridlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki tender savdolarini o'tkazmasdan amalga oshirishning mavjud tartiblari bekor qilinganligi inobatga olinsin.

4. Quyidagilar yangi tahrirda ilovalarga muvofiq tasdiqlansin:

- "O'ztransgaz" AJ ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)larning xaridi to'g'risidagi **Nizom 1-ilova**;

- "O'ztransgaz" AJ da shartnomalarni tayyorlash, tuzish, ro'yxatdan o'tkazish va tasdiqlash to'g'risidagi **Nizom 2-ilova**;

- "O'ztransgaz" AJning tovar (ish, xizmat)lar sotib olish bo'yicha xarid komissiyasining tarkibi **3-ilova**;

- "O'ztransgaz" AJ uchun tovarlar (ish va xizmat)lar sotib olish bo'yicha buyurtmalarni shakllantirish to'g'risidagi **Nizom 4-ilova**;

5. Personalni boshqarish departamenti (Boboyev), Xaridlar va kooperatsion aloqalar departamenti (Kirgizov) Xarid komissiyasi a'zolari asossiz sabablarga ko'ra komissiya yig'ilishlarida ishtirok etmagan taqdirda, ularning keyingi oyga ajratiladigan xodimlar faoliyatini baholash natijalari bo'yicha qo'shimcha va o'ta muhim topshiriqlarni bajarish bali qo'yilmasligi inobatga olinsin.

6. Barcha tuzilgan shartnomalar bo'yicha mahsulotlar va xizmatlarni qabul qilib olishda muvofqlik dalolatnomalari tuzilsin va bunda:

- xizmatlar shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshirilgandan so'ng xizmatlarni amalga oshirgan korxonalar va tarkibiy tuzilma o'rtasida bajarilgan ishlar dalolatnomasi tuzilib, buyurtma taqdim qilgan departament bilan kelishgan holda tarkibiy tuzilma va departamentning tegishli mutaxassislari tomonidan imzolanadi hamda Boshqaruv raisining tegishli o'rinbosarlari tomonidan tasdiqlanadi;

- tovarlarni shartnoma shartlarida ko'rsatilgan texnik ko'rsatkichlarga mosligi to'g'risida tarkibiy tuzilmalar tomonidan dalolatnoma tuzilib, buyurtma taqdim qilgan departament bilan kelishgan holda tarkibiy tuzilma va departamentning tegishli mutaxassislari tomonidan imzolanadi hamda Boshqaruv raisining tegishli o'rinbosarlari tomonidan tasdiqlanadi.

7. Jamiyatning tarkibiy tashkilotlari "Urganchtransgaz" UK, "Transgazinjining" MCHJ, "Yordamchi xo'jalik" MCHJ tovar (ish, xizmat)lar xarid qilishda o'zlarining ichki nizomini ishlab chiqsin, bunda:

- mahalliy va import shartnomalarni markazlashmagan holda amalga oshirish;

- eng yaxshi takliflarni tanlash va tender savdolarini o'tkazishda 7 (yetti) kishidan iborat komissiya tarkibi tuzilishi hamda xarid komissiyasi tarkibiga boshqaruv apparatidan "Xaridlar va kooperatsion aloqalar" va "G'aznachilik va moliya" departamentlaridan 1 (bir) nafardan xodim kiritilishi;

- xarid komissiyasining qarorlari uning a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi shartligi nazarda tutilsin.

8. "Urganchtransgaz" UK, "Transgazinjining" MCHJ, "Yordamchi xo'jalik" MCHJ ushbu qarordan kelib chiqib tashkiliy tuzilma tarkibiga o'zgartirish kiritish yuzasidan o'z takliflarini kiritsin.

9. "O'ztransgaz" AJning 2020 yil 3 iyun 79-sonli, 2020 yil 10 avgust 109-sonli va 2021 yil 24-may 109-sonli buyruqlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Barcha tarkibiy bo'linmalar va tashkilotlar tovar (ish, xizmat)lar sotib olish bo'yicha ushbu buyruq asosida ichki nizomini ishlab chiqsin.

11. Devonxona mudiri (Kamilova) ushbu buyruqni "O'ztransgaz" AJ tasarrufidagi tarkibiy bo'linmalar va tashkilotlar, ijroiya apparatining departament hamda bo'lim boshliqlariga yetkazilishini ta'minlasin.

12. Mazkur buyruq bajarilishini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi



B.Narmatov

**“Ўзтрансгаз” АЖ товарлар (ишлар, хизматлар) сотиб олиш учун харид
комиссияси таркиби**

1	Вакант	Тижорат бўйича директор – харид комиссия раиси
2	Маматкаримов Б.Р.	“Ўзтрансгаз” АЖ бошқарув раисининг молия ва маркетинг бўйича ўринбосари- комиссия раиси ўринбосари
3	Киргизов Ж.Б.	Харидлар ва кооперацион алоқалар департаменти бошлиғи
4	Мирзамойдинов С.	Комплаенс-назорати бўлими бошлиғи
5	Камолов С.О.	Ҳазначилик ва молия департаменти бошлиғи
6	Мамадалиев К.	Маҳаллийлаштириш, кооперацион алоқаларни кенгайтириш ва инновация бўлими бошлиғи
7	Улуғхўжаев Ш.П.	Юридик бўлим бошлиғи
8*		Департамент, бўлим бошлиғи – буюртмачи
9**	Ижрочи	Шартномаларни бажарилиши бўйича масъул ходим, комиссия котиби (овоз бериш ҳуқуқисиз)
10***	Ижрочи	Электрон танлов ва тендер савдоларини жойлаштириш бўйича масъул ходим, комиссия котиби (овоз бериш ҳуқуқисиз)

Эслатма:

1. Комиссия аъзоси бошқа ишга ўтказилганда ёки турли сабабларга кўра (меҳнат таътилида ёки касаллик варакасида бўлган даврида ва ҳ.з) иш вақтида бўлмаган тақдирда унинг ўрнига ушбу лавозимга янги тайинланган ёки тегишли вазифаларни бажариш зиммасига юклатилган шахс киритилади.
2. Комиссия раиси йўқлигида унинг вазифаларини комиссия раиси ўринбосари бажаради.
3. Харид комиссияси энг яхши таклифларни танлашни ва тендерни электрон шаклда ўтказиш чоғида ахборот-коммуникация технологиялари воситаларидан фойдаланган ҳолда масофадан туриб овоз бериш ҳуқуқига эга.
4. Харид комиссияси давлат харидларининг предметидан келиб чиққан ҳолда, ўз фаолиятини амалга ошириш учун экспертларни, шунингдек бошқа манфаатдор вазирликлар, идоралар ва давлат буюртмачисининг юқори турувчи ташкилоти мутахассисларини жалб этиш мумкин.

* Зарурат тугилганда, “Ўзтрансгаз” АЖнинг департаментлари ва бўлимлари ўз фаолият йўналишлари бўйича харид комиссияси йиғилишларига бевосита жалб қилинади.

** Буюртма бажарилишини, баённомаларни юритилишини ва шартнома (контракт)ларни ижросини таъминлаш ҳамда Харид комиссиясининг тезкор фаолиятини ташкил этиш бўйича масъул ходим.

***Электрон танлов ва тендер савдолари ўтказилганда “Электрон савдоларни ташкил қилиш бўлими” ходими овоз бериш ҳуқуқисиз ижрочи (комиссия котиби) сифатида иштирок этиши мумкин.